




ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT'

MS  
2022



# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

# PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2022, Maxsus son

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruyl nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

## Muassis: Buxoro davlat universiteti

**Tahririyat manzili:** O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

## TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich— pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Hamroyev Aljon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O’rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To’rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otobek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

*To’xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Hayitov Shodmon , tarix fanlari doktori, professor*

*To’rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Muhittdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbanova Gulnoz Ne’matovna, pedagogika fanlari doktori(DSc)*

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО**  
**Научно-теоретический и методический журнал**  
**2022, специальный выпуск**

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по педагогике и психологии.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раза в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель:** Бухарский государственный университет

**Адрес редакции:** Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Заместитель главного редактора:** Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

*Хамидов Обиджон Хафизович , доктор экономических наук, профессор*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Каххаров Сидик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Мустафа Сайд Арслан, доктор филологических наук, профессор (Турция)*

*Таджиходжасов Закирходжса Абдулсаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Сайджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чарив Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Каххаров Отабек Сидикович, доктор экономических наук (DSc)*

*Тухсанов Каҳрамон Раҳимбоевич, доктор педагогических наук (DSc)*

*Хайитов Шодмон, доктор исторических наук, профессор*

*Ражабов Каҳрамон, доктор исторических наук, профессор*

*Тураев Халим Ҳожиевич, доктор исторических наук, профессор*

*Мухитдинова Ҳадиҷа Собировна, доктор педагогических наук, профессор*

*Ниёзметова Роза Ҳасановна, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махмадмурод Ҳурамович, доктор педагогических наук (DSc)*

*Курбонова Гулноз Невъматовна, доктор педагогических наук (DSc)*

## **PEDAGOGICAL SKILLS**

**The scientific-theoretical and methodical journal**

**2022, special release**

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:**Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

**EDITORIAL BOARD:**

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Deputy Editor:** Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

**Editor:** Doctor of Pedagogical Sciences(DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

*Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I.Ibrahimov*

*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Philology, Prof. Mustafa Said Arslon (Turkey)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Economics Sciences Otabek S. Kahhorov*

*Doctor of Philology Kaxramon R. Tuxsanov*

*Doctor of Historical science, Prof. Sh. Hayitov*

*Doctor of Historical science, Prof. Halim H. Turaev*

*Doctor of Historical science, Prof. Q. Rajabov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Xadicha S. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Roza X. Niyozmetova*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbanova*

## MUNDARIJA

Baxtiyor ADIZOV. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	7
Ширинбай ОЛИМОВ, Юлдуз САИДОВА. Таалабалар маънавиятини ривожлантиришнинг йўналишлари .....	10
Bolta XODJAYEV. Shaxs ijtimoiylashuvida fuqarolik madaniyati muhim pedagogik omil sifatida .....	16
Нодира МУСАЕВА, Нафиса МУСАЕВА. Разработка теоретических основ технологии неразрывности обучения основанной на педагогической таксономии .....	20
Baxshillo UMAROV. Yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari .....	24
Кобилжон АБДУЛАЕВ. Приоритетные направления государственной образовательной политики в сфере дошкольного образования.....	28
Shabon FARMONOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	31
Гулия ХАБИБОВА. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана	36
O‘lmas QURBONOVA. Pedagogik fikrlar taraqqiyotining ayrim masalalari .....	39
Manzura OCHILOVA. O‘quvchilarning ma’naviy barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida al- Buxoriy ta’limotining o‘rni .....	42
Bobomurod JURAYEV. Abushakur Balxiyning “Ofarinnoma” asarida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari.....	45
Gulchehra IZBULLAYEVA. Didaktik asarlarda do‘stlik munosabati va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni .....	49
Nargiza BAXRIYEVA. Maktabgacha yoshdagи bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanganlik dinamikasi .....	54
Dildora TOSHEVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiyalashda tabiiy fanining o‘rni va ahamiyati.....	59
Olimjon AHMADOV. Taraqqiyparvarlarning Buxoroda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan g‘oya va qarashlari .....	63
Oybek ORTIQOV. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida tabalalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	66
Matluba XOJIYEVA. Abu Rayhon Beruniynig axloqiy qarashlari .....	70
Nigina ISMATOVA. Yoshlarni oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usul va vositalari .....	76
Lola ELIBOYEVA. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari .....	80
Feruza RAMAZONOVA. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kasbiy e’tiqod tuyg‘usini shakllantirish imkoniyatlari .....	86
Ma’rifat UMUROVA. Bo‘lajak o‘qituvchilar ma’naviy madaniyatini rivojlantirishda milliy merosning o‘rni .....	89
Nilufar RAXIMOVA. Tasavvuf ta’limotining tarbiyaviy ahamiyati .....	93
Mirjon AMONOV. O‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari.....	96

Sitora SHARIPOVA. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy – gumanitar fanlarni muammoli ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish pedagogik muammo sifatida....	100
Alimova SHAMSIYA. O‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirish .....	106
Rayima NEMATOVA. Oliy ta’limda hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi va uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari .....	111
Zuxriddin Shernazarov. Abdulla Avloniyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari .....	113
Malika UMEDJANOVA. Mutafakkirlar ma’naviy merosida aksiologik yondashuv asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarining yoritilishi .....	116
Bolta XODJAYEV, Shaxlo XALILOVA. O‘qituvchi va o‘quvchi pedagogik muloqoti ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omili .....	120
Umida FAYZIYEVA. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish yo‘llari .....	125
Anvar HУСРАТОВ. XVI-XVII асрларда Бухоро хонлигига илм-фан ривожи ва унинг педагогик шарт-шароитлари.....	129
Акбар ГУЛБОЕВ. Малака ошириш тизимидаги педагог-ходимлар касбий маҳоратини оширишнинг педагогик шарт-шароитлари.....	132
Sitora UMAROVA. Muhammad Avfiy Buxoriy hikoyatlarida ayol siymosining namoyon bo’lishi .....	137
Муножатхон АСРАНБАЕВА. Нотўлиқ оилаларда болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг асосий йўналишлари .....	143
Habib SODIQOV. Bo‘lajak haydovchi etikasini tarbiyalash – muhim pedagogik muammo sifatida .....	149
M.D.Nomozova, K.M. Muқимов. Наноструктураларда ёруғликнинг гигант комбинацион сочилиши (ЁКС) ва комбинацион сочилиш спектрометри	151
Aziza Babakeldiyeva. O‘yinlar vositasida bola shaxsini shakllantirish .....	155
Munavvar Sheraliyeva. Oilaviy tarbiya uslublari va ota-onalarning munosabatlar ma’naviyati .....	158
Б.Б.Адизов, Ф.К.Абдуллоев. Республиканинг олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш орқали тизимли ривожланиши .....	160
Урал Айтувганов. Творческого мышления как категории науки и познавательного процесса личности.....	163

---

## **ABDULLA AVLONIYNING YANGI USUL MAKTABLARINI TASHKIL ETISHDAGI MA'RIFATPARVARLIK XIZMATLARI**

---

*Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning yangi maktablar ochishdagi marifatparvarlik xizmatlari va ulardagi ta'lif tarbiya masalalari haqida fikir yuratilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *jadid marifat maktab ta'lif mazmuni ta'lif tarbiya turkiston adabiyot*

*В данной статье рассматриваются образовательные услуги Абдуллы Авлони по открытию новых школ и вопросы обучения в них.*

**Ключевые слова:** *джадид марифат школа образование содержание образование воспитание туркестанская литература.*

*This article discusses Abdullah Avloni's educational services in opening new schools and the issues of education in them.*

**Keywords:** *jadid marifat school education content education upbringing turkistan literature*

Turkistondagi jadid maktablarining yuzaga kelishi mashhur qrim tatar arbobi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog'liqdir. 1851-yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg'or demokratik g'oyalarni musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtirish yo'lida qizg'in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o'z navbatida jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Ko'p yurtlarda safarda bo'lgan Ismoilbek Gaspirali xalq taraqqiyoti birinchi navbatda maorifga bog'liq ekanligini anglab yetib, jamiyatdagi tub o'zgarishlarni amalga oshirishni yangi usuldagagi maktab tuzishdan boshladi. Gaspirali tomonidan ochilgan yangi usuldagagi maktab tez orada shuhrat qozondi. Jadid maktablarining ommaviy tus olishiga asosiy sabab I.Gaspirali tomonidan 1883-yildan boshlab nashr etila boshlangan «Tarjimon» gazetasi bo'ldi. Shu bilan birga Ismoilbek Gaspirali o'zi tashkil maktab uchun bir qator darsliklar va o'quv qo'llanmalari ham yaratdi. Uning yangi usuldagagi maktab hayotiga bag'ishlangan asarlari jumlasiga «Hujai Subyona», «Qirsati turki», «Rahabari muallimin» kabi darslik va o'quv qo'llanmalarini kiritsa bo'ladi. Gaspiralining ushbu asarlari o'quv jarayonini tashkil etish, darsliklarga qo'yiladigan talablar, musulmon o'quv adabiyotida qo'llaniladigan didaktik va metodik ko'rsatmalar bilan jadid maktablari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi.

I.Gaspirali boshqa turkiy xalqlar qatori o'zbek millatidagi ijtimoiy fikrlar taraqqiyoti, va shu jumladan, haqiqiy vatanparvar o'zbek ziyoilari, pedagoglarining kamol topishida ham o'chmas iz qoldirdi.

U 1893-yilda Buxoro xoni Abdullaxonga Turkistonda yangi usul maktabini ochilishga yordam berish uchun murojaat etadi. Ammo uning taklifi dastlab inkor etiladi. Shundan so'ng Gaspirali o'z maqsadiga erishish uchun qozon tatar ziyoilalaridan madad so'raydi. Va niyoyat, 1897-yilga borib unga Turkiston o'lkasida yangi usuldagagi maktab ochishga ruxsat eriladi.

XX asrning boshlarida o'zbek pedagogikasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan pedagoglarimizdan biri Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari turli xil g'oyalarni o'rtaida kurashlar bilan o'tadi. Dastlabki jadidchilik oqimining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan hisoblangan A.Avloniy zamon zayliga qarab ish ko'rib, oktyabr inqilobi tarafдорлari tomoniga o'tib ketadi. Shunday bo'lsa - da, u o'zbek pedagogikasida muhim o'rinn egallaydi.

A.Avloniy nashr etgan gazetalar ilg'or fikrlar targ'ibotchisi bo'lgani uchun ham uning faoliyati chorizm hukumati tomonidan tez-tez taqiqlanar edi. Shundan so'ng u ilg'or g'oyalarni ma'rifikat o'chog'i – maktab orqali xalqqa tarqatishga qaror qiladi va 1903-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usulda maktab ochadi. A.Avloniy o'zi ochgan maktabda kambag'allarning farzandlarini, yetim-yesirlarni o'qitdi. Avloniyning ilk o'quvchilaridan biri Yusuf Tohiriy mazkur maktab haqidagi xotiralarida shunday yozgan edi: «Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temir yo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi usuldagagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shovshuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: «Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish-yozishni o'rgatarmish, jo'g'rofiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'rgatilarmish», – degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga hammamiz oshiqardik. Nihoyat, bir kuni uch-to'rttamiz borishga jazm qildik.

Maktab pastakkina, nim qorong'u bo'lib, masjid yo'lagiga joylashgan edi. Xonaning tepeasidagi yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir ham tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va o'qimoq uchun kelganlar soni ko'p edi. Hayotimizda domlaning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotma, cho'qqi soqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim – A.Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay, ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Bizning bolalarining oldi bir necha yildan beri maktabga qatnab yurgan bo'lsa ham, mirobodliklar oldida uyalib qoldik. Ular o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabardor bo'lishlari bilan hammamizni lol qoldirishdi. Ayni zamonda bizni eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi».

A.Avloniying Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan yangi usuldagagi maktabning dovrug'i, Yusuf Tohiriy xotiranomasida yozganidek, butun Toshkentga tarqaldi. Lekin u ko'p o'tmay yopildi.

Bu haqda A.Avloniy shunday yozgan edi: «Maktabimda yer, odamlar, tog'-toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o'tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo'lding deb maktabimni yopdilar». Biroq A.Avloniy o'z g'oyasi va e'tiqodi yo'lida bu muvaffaqiyatsizlikdan va ilm-ma'rifatga qarshi bo'lgan jaholatparastlardan, chor hukumatining millatchilik siyosati oldinga surgan har qanday to'siqlardan qo'rqedidi. Shundan so'ng u 1909-yilda kambag'al va yetim-yesirlarga yordam berguvchi «Jamiyati xayriya» jamg' armasini tashkil etadi va unga olti oy mobaynida raislik qiladi. Shu yili Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfdan iborat maktab ochdi. «Maktabda bolalarga jo'g'rofiya, tarix, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlar bilan birga ona tili va adabiyot fanlaridan bilim beradi». Yetim-yesir bolalarni kiyim-bosh, qalam-daftар bilan ta'minlash uchun bo'sh vaqtlarida duradgorlik va suvoqchilik qiladi, pechka tuzatuvchi usta bo'lib pul topadi.

U 1933-yilda o'zbek maktablarining 7-sinfi uchun “Adabiyot xristomatiyasi” tuzib, nashr ettirdi. Abdulla Avloniy “Hijron”, “Nabil”, “Indamas”, “Shuhrat”, “Tang-riquli”, “Surayyo”, “Shapaloq”, “Chol”, “Chig`aboy”, “Abdulhaq” taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000 misradan ortiq she'r ijod qilgan.

A.Avloniy mehnatkash xalq farzandlarining kelajagiga butun borlig'i bilan ishongan holda, ularning savodini chiqarish, sinfiy ongini o'stirish maqsadida yangi usuli savtiya maktablari uchun darslik va qo'llanmalar ham yaratdi. Ayniqsa, uning «Muallimi avval» (1911), «Muallimi soniy» (1912), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913), 6 qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1917), «Maktab guliston» (1915) va boshqa asarlari o'zbek milliy tarbiyashunosligi tarixida muhim o'rin egallaydi.

A.Avloniy bolalarining axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor beradi va shu sababdan o'z maktabida «axloq» darsini o'ta boshlaydi. Avloniy Turkiston maktablarida axloq - odob to'g'risidagi bilimlar berilishi lozimligini quyidagicha tushuntiradi: «... Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilishi mukammal «axloq» kitobining yo'qligi ofrodi millatining shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi o'zim muallimlar jumlasidan bo'lganligimdan manga ham ochiq ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bo'lsa - da o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni orodin ko'tarmakni munosib ko'rdim».

Pedagog maktablarda «axloq» darslarini tashkil qilishni o'z zimmasiga olgan holda, 1913 yilda «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli ta'lim - tarbiya masalalarini chuqur bayon qiluvchi asar yaratadi. Uning bu asarida xulqiga qarab kishilarning ikkiga bo'linishlari («yxashi xulq» va «yomon xulq»), tarbiya turlari, tarbiyani to'g'ri tashkil etish va boshqa qimmatbaho fikrlar berilgan. Jumladan, A.Avloniy tarbiya sarlavhasi ostida tarbiya turlariga alohida to'xtalib, tarbiyani to'rt turga bo'ladi: tarbiyaning zamoni; badan tarbiyasi; fikr tarbiyasi (aqliy tarbiya); axloq tarbiyasi.

Abdulla Avloniy tomonidan tarbiyaning yuqoridaagi tartibda aniqlanishi uni bolalarga xos xususiyatlardan chuqur xabardor ekanligidan darak beradi. U «Tarbiyaning zamoni» mavzusidagi bolalarga tug'ilgan kunidan boshlab tarbiya berish zarurligini hamda tarbiyani to'g'ri tashkil qilish uchun tarbiyachi, ota - ona, muallimlarning o'zları ham tarbiyalangan kishilar bo'lishi lozimligini qayd qilib o'tadi. «Badan tarbiyasi» mavzusida insонning salomat bo'lishi uchun hamisha badan tarbiyasi zarurligini ko'rsatib, «... o'qimoq, o'qitmoq va o'rganmoq uchun insonga kuchlik kasalsiz jasad lozimdir», – deydi. Qolgan ikki - aqliy va axloqiy tarbiya mavzularida esa A.Avloniy o'qitishda ta'lim-tarbiyaning birligiga, tarbiyada esa o'qituvchilarning ibrat-namunasiga ahamiyat berish shartligini ta'kidlab o'tadi.

A.Avloniy ham o'sha davrda faoliya ko'rsatgan boshqa ziyyolar qatori tashkil qilgan maktablari uchun darsliklar ham yozadi. Uning «Birinchi muallim» va «Ikkinci muallim» kabi darsliklari shular jumlasidandir. Bundan tashqari A.Avloniy o'z zamondoshlari orasida pedagogika fanini birinchi bo'lib tilga olgan va o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida pedagogika «Pedagogiya» - bola tarbiyasining fani demakdir, deb to'g'ri ta'rif bera olgan buyuk pedagog hamdir. Shu jihatdan ham uni o'zbek pedagogikasi taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'targan olimlar qatoriga kiritsa bo'ladi.


Jadidlar tuzgan maktablar tabiiy sharoiti, jihozlanishi, katta - kichikligi bilan bir - biridan tubdan farq qilsa - da, ularda asosan bir xildagi fanlar o'qitilar, bu maktablarning barchasidagi o'quv jarayoni I.Gaspirali targ'ib etgan ilg'or demokratik g'oyalar va musulmonchilikni diniy asoslarini birqalikda o'rgatilishi asosida amalga oshirilar edi. Ushbu maktablarning o'qituvchilari oldiga qo'yiladigan vazifa nafaqat o'quvchilarga bilim berish bo'lmay, balki ularda hayotiy fikrlash, qiziqish uyg'otish, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'quvchilarni milliylik ruhida tarbilash ham edi.

Jadidlar tuzgan maktablarda aholiga ilmiy-ommabop bilim berish muhim pedagogik vazifa hisoblanar edi. Shu bilan birga bu maktablardagi bilimlar sodda va tushunarli holda ifoda etilardi. Bu maktablarda diniy bilimlar bilan birga hayotda eng zarur bo'ladiyan ilmiy bilimlar, ya'ni ona tili, riyoziyot, jug'rofiya fani asosan o'lkashunoslik materiallari asosida o'rghanildi. Bolalar intizomiga jadidlar maktablarida alohida e'tibor berilar, bolalarga ta'lim - tarbiya berishda dinning tarbiyaviy ahamiyatidan samarali foydalanilar edi. Katta moddiy qiyinchiliklarga qaramasdan iqtidorli bolalar tahsil olish uchun chet ellarga yuborilardi.

Jadidlarning yana bir muhim fazilati shundaki, ularning ko'pchiligi ta'lim mazmuniga yangicha yondashgan holda o'zbek tilida darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishgan va ushbu asarlari orqali o'z uylarida maktablar ochib, bolalarga ta'lim-tarbiya berishgan.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 1-jild. She'rlar, ibratlar /To'pl., nashr.tayyorl., va so'zboshi muallifi: B.Ýosimov; Izohlar va lu'fatni: O.To'laboev tuzgan.-T.: Ma'naviyat, 1997.-272b.- (Istiqlol qahramonlari).
2. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar: 2-jildlik. 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikotyalar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari /Tahrir hay'ati: O.SHarafiddinov va boshq.; To'plovchi: B.Qosimov: Izohlar va lu'fatni O.To'laboev tuzgan.-T.: Ma'naviyat, 1998.-304 b.- (Istiqlol qahramonlari).
3. Avloniy Abdulla. Guliston yoki axloq /So'z boshi M.Maxsumovniki.-T.:O'qituvchi, 1967.-80 b.
4. Avloniy Abdulla. Toshkent tongi: She'rlar, masallar, rivoyatlar, dramalar /To'plovchi va so'z boshi mual-lifi B.Qosimov.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.-391 b.
5. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O'qituvchi.1992.-62 b.
6. Avloniy Abdulla. O'son, millat! /Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi B.Ýosimov, Sh.Rizaev.-T.: SHarq, 1993.-144 b.- (Istiqlol fidoyilar).
7. Avloniy Abdulla. Ahvoli olamdan bir namuna: (Mardikorning) xotuniga aytgan so'zi: [She'rlar] //Guliston.-1978.-№7.-B.10-11.
8. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq: [Tarbiya haqida] //Fan va turmush.-1984.-№11.-B.26-27.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali  
mактаб, коллеж, институт и университет педагогик жамоасига мумкин олган  
сифатида хизматни ташкил этишини таҳдидайдиз.

Mуаллифлар учун еслатиб о‘тамиз, мақола олдиликларини университет  
тахририй-нешрият бо‘лимидаги тадқиқотни ташкил этишини таҳдидайдиз.

Манзилимиз: Бухоро шаҳри, М.Иқболов улица 11-й  
Бухоро давлат университети, 1-бино 2-квартира, 208-хона

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2022-yil  
maxsus son**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliv o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda mактаб o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommagaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:  
Alijon HAMROYEV.**

**Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.  
Muhammar: O‘g‘iljon Olloqova**

Jurnal tahririyat kompyuterida  
sahifalandi. Chop etish sifati uchun  
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 12.06.2022  
Bosmaxonaga topshirish vaqtiga  
21.06.2022

Qo‘zoz bichimi: 60x84. 1/8  
Tezkor bosma usulda bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i – 20,6  
Adadi – 100 nusxa  
Buyurtma № 315  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadreddin Salim Buxoriy” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.